



O'ZBEKISTONDA ALTERNATIV MOLIYA EKOTIZIMINI RIVOJLANTIRISH INSTRUMENTLARI TAHLILI VA ISTIQBOLLAR

Tojiboyev Xurshidbek

Andijon davlat universiteti akademik litseyi

ORCID: 0009-0000-9130-1594

casper56301@gmail.com

Dadabaev Umidjon

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0000-0001-7143-2351

u.dadabayev@tsue.uz

Abdushukurova Madinabonu

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0000-6386-0794

abdusukurovamadina0@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasida alternativ moliya ekotizimi va uning asosiy instrumentlari tahlil qilingan. So'nggi yillarda mamlakatda iqtisodiy diversifikatsiya va moliyaviy inklyuziyani oshirish maqsadida mikromoliya, crowdfunding, peer-to-peer (P2P) lending, ijtimoiy investitsiyalar hamda islom moliyasi kabi alternativ moliyalashtirish mexanizmlariga e'tibor kuchaymoqda. Tadqiqotda ushbu instrumentlarning rivojlanish holati, imkoniyatlari va mavjud muammolari yoritilgan. Shuningdek, bozor konyunkturasining turli sharoitlarida alternativ moliya tizimining rivojlanish senariylari ishlab chiqilgan hamda crowdfunding va islom moliyasi uyg'unlashuvi istiqbollari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: alternativ moliya, moliyaviy inklyuziya, crowdfunding, P2P lending, mikromoliya, ijtimoiy investitsiya, islom moliyasi.

АНАЛИЗ И ПЕРСПЕКТИВЫ ИНСТРУМЕНТОВ РАЗВИТИЯ ЭКОСИСТЕМЫ АЛЬТЕРНАТИВНЫХ ФИНАНСОВ В УЗБЕКИСТАНЕ

Тажибоев Хуршидбек

Академический лицей Андиганского

государственного университета

Дадабаев Умиджон

Ташкентский государственный экономический университет

Абдушукурова Мадинабону

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В статье рассматривается экосистема альтернативных финансов в Республике Узбекистан и анализируются её ключевые инструменты. В последние годы в стране усиливается внимание к развитию микрофинансов, краудфандинга, peer-to-peer (P2P) кредитования, социальных инвестиций и исламских финансов, что способствует диверсификации экономики и повышению финансовой инклюзии. В исследовании раскрываются текущее состояние, возможности и проблемы развития этих инструментов в Узбекистане. Кроме того, разработаны сценарии развития альтернативной финансовой системы в различных условиях рыночной конъюнктуры и рассмотрены перспективы интеграции краудфандинга с исламскими финансами.

Ключевые слова: альтернативные финансы, финансовая инклюзия, краудфандинг, P2P-кредитование, микрофинансы, социальные инвестиции, исламские финансы.

ANALYSIS AND PROSPECTS OF ALTERNATIVE FINANCE ECOSYSTEM DEVELOPMENT INSTRUMENTS IN UZBEKISTAN

Tojiboyev Xurshidbek

Academic Lyceum of Andijan State University

Dadabaev Umidjon

Tashkent State University of Economics

Abdushukurova Madinabonu

Tashkent State University of Economics

Abstract. *The article analyzes the ecosystem of alternative finance in the Republic of Uzbekistan and examines its main instruments. In recent years, increasing attention has been paid to microfinance, crowdfunding, peer-to-peer (P2P) lending, social investments, and Islamic finance as tools to promote economic diversification and financial inclusion. The study highlights the current state, opportunities, and challenges of developing these instruments in Uzbekistan. Moreover, development scenarios of the alternative financial system under different market conditions are proposed, and the potential integration of crowdfunding with Islamic finance is explored.*

Keywords: *alternative finance, financial inclusion, crowdfunding, P2P lending, microfinance, social investment, Islamic finance.*

Kirish.

O'zbekiston iqtisodiyotining diversifikatsiyasi va moliyaviy inkluziyani oshirish maqsadida alternativ moliya instrumentlariga e'tibor kuchaydi. Alternativ moliya tizimi – bu an'anaviy bank tizimidan tashqari turli moliyaviy instrumentlar va mexanizmlarni o'z ichiga olgan, kichik va o'rta biznes, innovatsiyalar va ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirish uchun mo'ljallangan ekotizimdir (Zhang, R., & Posso, A., 2020). Bu bobda O'zbekistonda mavjud alternativ moliya instrumentlari tahlil qilinadi, shuningdek, bozor kon'yekturasining turli holatlarida integratsiya qilinuvchi tizim uchun rivojlanish ssenariylari ishlab chiqiladi.

O'zbekistonda eng keng tarqalgan alternativ moliya instrumentlaridan biri mikro moliyalashtirish mamlakatimizda kichik biznesni qo'llab-quvvatlashda asosiy vosita hisoblanib, 2023-yilda mikro moliya kreditlari hajmi 1.5 trillion so'mni tashkil yetdi (Markaziy bank, 2023). Crowdfunding degani esa yangi loyihalarni moliyalashtirish uchun ommaviy mablag' yig'ish shakli bo'lib, hozirda O'zbekistonda 5 ta asosiy crowdfunding platformasi faoliyat yuritmoqda, ular orqali jami 15 milliard so'm mablag' jalb qilingan (UzFinTech, 2023-2024).

Adabiyotlar sharhi.

So'nggi yillarda alternativ moliya tizimi global miqyosda tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda va u an'anaviy bank tizimiga qo'shimcha sifatida kichik va o'rta biznesni, innovatsiyalarni va ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirishda muhim vositaga aylanmoqda. Alternativ moliya tarkibiga mikro moliya, crowdfunding, peer-to-peer (P2P) lending, ijtimoiy investitsiyalar va islom moliyasi kabi instrumentlar kiradi (Ziegler et al., 2021).

Mikro moliya asosan rivojlanayotgan davlatlarda aholining kam ta'minlangan qatlamiga va kichik tadbirkorlarga moliyaviy xizmatlarni taqdim etishga qaratilgan bo'lib, u moliyaviy inkluziyani oshirishda samarali mexanizm sifatida e'tirof etiladi (Armendariz & Morduch, 2010). O'zbekistonda mikro moliya institutlari soni oshib borayotgan bo'lsa-da, ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash hamda qonunchilik bazasini takomillashtirish zarur (Osiyo taraqqiyot banki, 2022).

Crowdfunding so'nggi yillarda yangi investitsiya mexanizmi sifatida iqtisodiy va ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirishda keng qo'llanilmoqda. Lambert va Schvienbacher (2010) ta'kidlashicha, crowdfunding kichik investorlarning kapitalini yig'ib, startaplar va innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlashga imkon beradi. O'zbekistonda bu tizim endigina shakllanayotgan bo'lib, bir nechta platformalar faoliyat yuritmoqda, biroq qonunchilik va moliyaviy savodxonlik bilan bog'liq muammolar mavjud.

Peer-to-peer (P2P) lending esa qarz beruvchilar va qarz oluvchilarni to'g'ridan-to'g'ri bog'lovchi onlayn platforma bo'lib, u an'anaviy bank kreditlariga nisbatan tezkor va arzonroq hisoblanadi (Milne & Parboteeah, 2016). Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, P2P lending kichik biznes uchun muhim moliyaviy manba bo'lishi mumkin, ammo tartibga solish mexanizmlari yetarlicha rivojlanmagan taqdirda risklar ortadi (Zhang va boshqalar, 2018).

Islom moliyasi esa shariat tamoyillariga asoslangan bo'lib, foiz (ribo)ni taqiqlaydi va moliyaviy operatsiyalarni real aktivlar bilan bog'lashni talab qiladi (Iqbal & Mirakhor, 2011). O'zbekistonda islom moliyasi segmenti nisbatan kichik bo'lsa-da, uning rivojlanishi aholining diniy talablariga mos keladigan moliyaviy xizmatlarni taqdim etish va xalqaro kapitalni jalb qilish uchun katta salohiyatga ega (Jahon banki, 2023).

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot metodologiyasi mahalliy va xorijiy mualliflarning takofulning turli jihatlariga bag'ishlangan konsepsiyalariga asoslanadi. Tadqiqotning uslubiy asosini strukturaviy-funksional va jahon iqtisodiyotida neoliberal yondashuv tashkil etadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.


So'nggi yillarda O'zbekiston moliya bozorida mikro moliya tizimi asosiy o'rin tutib bormoqda. 2023-yil ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda mikro moliya tashkilotlari soni 120 taga yetib, ular 1 milliondan ortiq mijozlarga xizmat ko'rsatmoqda (Markaziy bank, 2023). Shuningdek, fintech texnologiyalarining rivojlanishi "Crowdfunding" va "P2P lending" tizimini ham jadallashtirmoqda, ammo ularning ulushi hozircha butun bozorning 3 foizini tashkil qilmoqda (KPMG Uzbekistan, 2024).

Crowdfunding, yuqorida ta'kidlanganidek ommaviy mablag' yig'ish, so'nggi yillarda global miqyosda keng tarqalgan moliyaviy mexanizmga aylandi. Bu tizim orqali kichik va o'rta bizneslar, ijtimoiy tashabbuslar va startaplar o'z loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'zbekistonda crowdfunding platformalari yangi rivojlanish bosqichiga qadam qo'yib, iqtisodiy va ijtimoiy loyihalarni qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynamoqda.

O'zbekiston bozorida "Crowdfunding" platformalarining rivojlanishi iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik loyihalarni moliyalashtirishda yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Har bir platforma o'zining noyob xususiyatlari va imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Kiva, Vklad.uz, Kredit Oson, Fonds.uz va Zarf.uz kabi platformalar O'zbekistonda kichik biznes va ijtimoiy loyihalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lib, ularning rivojlanishi mamlakatdagi moliyaviy inklyuziya va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston uchun crowdfunding mexanizmini takomillashtirish, qonunchilikni rivojlantirish va foydalanuvchilarni moliyaviy savodxonlikka o'rgatish talab etiladi.

1-rasmda tasvirlanganidek, alternativ moliya tizimiga moliya, crowdfunding (jamoatchilik asosida moliyalashtirish), peer-to-peer (P2P) lending, ijtimoiy investitsiyalar va xayriya asosida moliyalash kiradi.

P2P lending ham to'g'ridan-to'g'ri qarz berish platformalari hisoblanib, 2022-yilda O'zbekistonda 20 milliard so'm hajmida faoliyat ko'rsatgan. Peer-to-peer (P2P) lending – bu moliyaviy platformalar orqali to'g'ridan-to'g'ri shaxslar yoki korxonalar o'rtasida qarz mablag'larini uzatish shaklidir. An'anaviy bank kreditlaridan farqli o'laroq, P2P platformalar bankni oraliq sifatida bekor qiladi, shu bilan birga qarz beruvchi va oluvchi o'rtasida bevosita aloqani ta'minlaydi (Freedman, S., & Jin, G. Z., 2017).



1-rasm. Alternativ moliyalash instrumentlari

Alternativ moliyalashtirishning “P2P lending” shakli mamlakat iqtisodiyotida quyidagi afzalliklarni yaratadi:

- Kredit olish jarayonining tezligi va soddaligi;
- Kichik va o'rta biznes (KOB) hamda mustaqil tadbirkorlar uchun qulay moliyalashtirish;
- Kredit beruvchilar uchun yuqori daromad olish imkoniyati;
- Bank tizimidan tashqari moliyalash imkoniyatini kengaytirish.


Mamlakatimizda “P2P lending”ning hozirgi holati so'nggi yillarda sezilarli sur'atlar bilan rivojlanmoqda. 2023-yil oxirida mamlakatda 7 ta faol “P2P” platformalar ro'yxatga olingan bo'lib, ulardan eng yiriklari «LoanUz», «KreditOson» va «P2PLend» hisoblanadi.

2023-yilda O'zbekistonda P2P lending orqali jami 20 milliard so'm miqdorida kreditlar berilgan, bu 2022 yilga nisbatan 35% o'sishni ko'rsatadi. Ushbu o'sish asosan kichik biznes va shaxsiy ehtiyojlar uchun qisqa muddatli kreditlar berilishi bilan bog'liq.

“P2P lending” O'zbekistonda moliyaviy inklyuziyani oshirishda muhim rol o'ynaydi, hamda bank xizmatlaridan chetda qolayotgan fuqarolar va kichik tadbirkorlar uchun kredit olish imkoniyatini yaratadi. Jahon Banki hisobotiga ko'ra, O'zbekistonda 2023-yilgi aholining taxminan 40 foizi bank xizmatlaridan to'liq foydalanmaydi. P2P platformalar shu foydalanmayotgan qatlamni moliyaviy tizimga jalb qilishda samarali vosita hisoblanadi.

Shuningdek, P2P kreditlarining o'ziga xosligi shundaki, yuqori bunday kreditlar moslashuvchan va tezkor bo'lib, ularda an'anaviy banklarga qaraganda qarz berish jarayoni onlayn rejimda va arzonroq, foydalanuvchilarga vaqt va xarajatlarni tejash imkonini beradi.

O'zbekiston bozorida P2P lending rivojlanishiga bir qancha to'siqlar mavjud:



2-rasm. O'zbekistonda P2P lending rivojlanishiga to'siqlar

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda P2P lendingni tartibga soluvchi maxsus normativlar mavjud emas yoki ular yetarlicha rivojlanmagan, bu esa platformalarning ishonchlili va mijozlar huquqlarining himoyasiga xavf tug'diradi. Shuningdek, ko'plab mijozlar onlayn moliya xizmatlaridan foydalanishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda, shu jumladan qarz shartlarini tushunmaslik, noto'g'ri qarz olish kabi muammolar mavjud.

Shuning bilan birgalikda, texnologik cheklovlar, ayniqsa qishloq joylarida internet aloqasining yetishmasligi va raqamli savodxonlikning pastligi P2P xizmatlarining keng tarqalishiga to'siq bo'lmoqda. Risklarni boshqarish borasida ham kreditlarning qaytarilmasligi xavfi yuqoriligi, ayniqsa P2P platformalar hozircha kredit risklarini baholash uchun yetarlicha ma'lumot va tajribaga ega emasligi ham bu sohadagi bugungi kundagi to'siqlardan hisoblanadi.

Mazkur sohani takomillashtirish uchun yuqorida qayd etilgan muammolarni bartaraf etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Peer-to-peer lending O'zbekistonda alternativ moliya ekotizimini boyituvchi va moliyaviy inklyuziyani oshiruvchi muhim instrument hisoblanadi. Uning rivojlanishi iqtisodiy o'sishga, kichik biznesni qo'llab-quvvatlashga, va moliyaviy xizmatlardan foydalanishni kengaytirishga xizmat qiladi. Biroq sohada qonunchilikni takomillashtirish va moliya savodxonligini oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish zarur.

Ijtimoiy investitsiyalar va xayriya moliyasi ko'proq notijorat sektor uchun mo'ljallangan bo'lib, xozirda O'zbekistonda jami 500 milliard so'm atrofida mablag' jalb qilingan. Ushbu instrumentlar orqali kichik biznes va ijtimoiy loyihalar uchun moliyaviy resurslar kengaymoqda, ammo hali ular mamlakat moliya tizimining asosiy qismiga aylanganicha yo'q.

So'nggi yillarda O'zbekiston moliya tizimida islom moliyasiga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Bu nafaqat mamlakatimizda moliyaviy inklyuziyani oshirish, balki xalqaro moliya bozorlarida ishtirok etish uchun ham yangi imkoniyatlarni ochmoqda. Islom moliyasi an'anaviy moliya tizimidan asosiy farqi – foizni taqiqlashi va moliyaviy operatsiyalarni real iqtisodiyotga bog'lab amalga oshirishidir.

Islom moliyasida keng qo'llaniladigan asosiy instrumentlar bu mudoraba, mushoraka, murobaha, ijara, salam va istisno hisoblanadi. Ushbu instrumentlar an'anaviy bank tizimining foiz asosida ishlashiga qarshi real aktivlar va risklarni bo'lishishga asoslangan moliyalashtirish shakllarini taklif etadi.

Xozirda O'zbekiston moliya bozoridagi islom moliyasi segmentining umumiy hajmi taxminan 300 milliard so'mga yetgan. Islom moliyasi instrumentlari orqali berilgan kreditlar jami kredit portfelining 4 foizini tashkil qiladi, bu 2020-yildagi 1,2 foiz ko'rsatkichidan sezilarli o'sishni anglatadi. Kichik va o'rta biznesni moliyalashtirishda islom moliyasi instrumentlarining ulushi 2022-yilga nisbatan yiliga 25 foizga o'smoqda.

Jahon bankining 2023-yilgi hisobotiga ko'ra, O'zbekistonda aholining aholining 65% dan ortig'i foiz asosidagi kreditlardan foydalanishni diniy sabablar bilan istamaydi. Shariatga muvofiq xizmatlar 2023-yilda islom moliyasi mahsulotlaridan foydalanuvchilar soni 150 mingdan oshib, 2021-yilga nisbatan 2,5 barobar o'sdi. Islom moliyasining kengayishi orqali moliyaviy xizmatlarga kirish imkoniyati 10 foizga oshgani qayd etildi.


Yuqoridagi tahlillarda alternative moliyalashtirish unstrumentlaridan biri sifatida Crowdfunding taklif etildi. Ma'lumki, Crowdfundingning ko'p uchraydigan to'rtta turi mavjud. Bular "Donation-based" – xayriya, shartsiz hadya,

"Reward-based" – oldindan mahsulot yoki xizmat evaziga mablag' to'plash, "Equity-based" – kompaniya aksiyalarini sotish orqali, hamda "Debt-based" – qarz berish, ko'pincha foiz bilan amalga oshiriladi, ammo bu usul islomda ta'qiqlanadi.

Crowdfunding islom moliyasi instrumentlarini amaliyotga tatbiq etishda eng istiqbolli va mos keladigan alternativ moliyalashtirish shaklidir. Donation-based va equity-based crowdfunding shakllari shariat tamoyillariga to'liq muvofiq bo'lib, ular orqali ijtimoiy adolat, riskni adolatli taqsimlash va real sektorni moliyalashtirish amalga oshiriladi.

Islom moliyasi va Crowdfundingni uyg'unlashtirish orqali nafaqat yangi investitsiya manbalari yaratiladi, balki moliyaviy inklyuzivlik, ijtimoiy mas'uliyat va iqtisodiy o'sish uchun qulay sharoitlar yuzaga keladi. Shu sababli, mamlakatlar moliyaviy innovatsiyalarni rivojlantirish jarayonida crowdfundingni islom moliyasi tamoyillari asosida rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishlari muhimdir.

Crowdfunding – bu ko'pchilik manbalardan kichik miqdordagi pul yig'ish orqali turli loyihalarni moliyalashtirish usuli bo'lib, bu yondashuv islomiy moliyaning ma'naviy-maqсадlariga ham mos bo'lishi mumkin. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, islomiy fintex (fintech) orqali crowdfunding islomiy moliya instrumentlarining alternativasi sifatida o'rganilmoqda.



3-rasm. Crowdfundingning asosiy turlari

An'anaviy Crowdfunding to'rt asosiy turga bo'linadi. Birinchisi, xayriya asosidagi (donation-based) model bo'lib, unda donorlar hech qanday moliyaviy qaytim yoki kompensatsiya kutmasdan mablag' ajratadilar (Ethis, 2023). Ikkinchisi, mukofot asosidagi (reward-based) model bo'lib, bunda mablag' yig'uvchi shaxs yoki tashkilot homiylarga mahsulot, xizmat yoki shunchaki minnatdorchilik belgisi sifatida mukofotlar taqdim etadi. Uchinchi tur – qarz asosidagi (debt-based/P2P) model bo'lib, unda moliyalashtiruvchilar loyihaga qarz beradi; bu odatda foizsiz yoki oldindan kelishilgan shartlar asosida qaytariladi. To'rtinchi model – ulush asosidagi (equity-based) bo'lib, bunda investorlar loyihaga kapital kiritadi va natijada foyda yoki zarar ulush bo'yicha taqsimlanadi.

Mamlakatimizda keng tarqalishi mumkin bo'lgan mazkur moliyalashtirish usulining Equity-based turi bo'lib, aholining kayfiyatiga juda mos keladi. Equity-based crowdfunding (ulush asosidagi ommaviy moliyalashtirish) – bu investorlar onlayn platforma orqali biror loyiha yoki korxonaga kapital kiritib, evaziga ushbu korxona yoki loyihada ulushga ega bo'ladigan moliyalashtirish modeli hisoblanadi (Ahlers va boshqalar, 2015). Ushbu ulush, odatda, aksiyalar yoki kapitaldagi boshqa shakllar bilan ifodalanadi va investorlar loyihadan kelajakda olinadigan foyda hamda ehtimoliy zararlarni taqsimlash huquqiga ega bo'ladi.

Mazkur modelning asosiy farqi shundaki, investor passiv homiy emas, balki biznesning haqiqiy sherigiga aylanadi. Shu bois, equity-based crowdfunding an'anaviy aksiyalar bozori va venchur kapital investitsiyalariga o'xshash xususiyatlarga ega, biroq u kichik miqdordagi investorlar ishtiroki va raqamli platformalar orqali amalga oshirilishi bilan farqlanadi.

Islomiy moliya nuqtai nazaridan, equity-based crowdfunding eng mos modellardan biri sanaladi, chunki u foyda va zararlarni taqsimlash (Profit and Loss Sharing) tamoyiliga asoslanadi. Ushbu tamoyil shariatdagi Musharakah va Mudarabah shartnomalariga juda yaqin. Musharakahda barcha tomonlar kapital kiritadi va foyda hamda zarar kelishilgan ulushlarga ko'ra taqsimlanadi, Mudarabahda esa bir tomon kapital beradi, boshqa tomon esa mehnat va boshqaruvni ta'minlaydi, natijada foyda oldindan kelishilgan nisbatda, zarar esa faqat kapital egasiga taqsimlanadi.


Equity-based Crowdfundingni O'zbekistonda joriy etish, hamda islomiy shartlarda foydalanish uchun quyidagi jihatlar muhim:

- *Ribo (foiz) qat'iyman etiladi, shuning uchun investorlar foydani faqat ulushga mos ravishda olishi kerak bo'ladi.*

- *G'arar (noaniqlik) minimal darajada bo'lishi zarur, ya'ni loyiha maqsadi, biznes modeli, risklar va daromad taqsimoti shaffof bo'lishi kerak.*

- *Halol faoliyat – moliyalashtirilayotgan loyihalar shariatga zid bo'lgan faoliyatlar, spirtli ichimliklar, qimor, foizli moliya kabilar shug'ullanmasligi kerak.*

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, equity-based crowdfunding musulmon mamlakatlarida, ayniqsa halol startaplar, agribiznes, ijtimoiy tadbirkorlik sohalarida katta salohiyatga ega (Mohd Thas Thaker, 2018). Bundan tashqari, raqamli fintech platformalari orqali bunday modelni joriy etish, masalan, smart-kontraktlar va blockchain texnologiyalarini qo'llash ishonch va shaffoflikni oshiradi (Rabbani va boshqalar, 2021).



4-rasm. Equity-based Crowdfundingning Mudoraba modeli mehanizmi

Crowdfunding platformasi orqali "Rab-ul-mal", ya'ni sarmoya egalarining yig'ilgan kapitali loyiha boshqaruvchisi(mudorib)ga biznesga yo'naltirish uchun beriladi. Mudorib kapital bilan ishlaydi, loyihani amalga oshiradi va foyda oldindan kelishilgan nisbatda taqsimlanadi. Zarar bo'lsa, u faqat kapital egasining hissasidan kamayadi, chunki boshqaruvchi mehnatini yo'qotadi, lekin moliyaviy zarar tortmaydi.

Equity-based Crowdfunding islom moliyasida Mushoraka va Mudorabah modellariga moslashtirilganda, u faqat ulush asosida foyda taqsimlash, foizli qarzga yo'l qo'ymaslik va riskni adolatli bo'lish tamoyillarini saqlab qolgan holda ishlatilishi mumkin.

Xulosa va takliflar.

O'zbekistonda alternativ moliya ekotizimi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, investitsiya muhitini kengaytirish va aholi hamda biznes subyektlari uchun moliyaviy xizmatlar doirasini boyitishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, islomiy moliya, fintex innovatsiyalari, kraudfanding va boshqa alternativ instrumentlar joriy etilishi moliya bozorining diversifikatsiyasini oshiradi, iqtisodiy risklarni kamaytiradi hamda moliyaviy inklyuziyani kengaytiradi.

O'zbekistonda alternativ moliya ekotizimini rivojlantirishda birinchi navbatda huquqiy bazani mustahkamlash, xususan islomiy moliya, kraudfanding va fintex faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilikni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, raqamli moliya xizmatlarini samarali joriy etish uchun zamonaviy texnologik infratuzilmani shakllantirish, ishonchli platformalar va xavfsizlik tizimlarini yaratish zarur. Xalqaro tajribani, xususan Turkiya, Malayziya va BAA tajribalarini o'rganib, moslashuvchan rivojlanish ssenariylarini ishlab chiqish O'zbekiston sharoitiga mos keluvchi samarali yechimlarni topishga yordam beradi. Shuning bilan birgalikda, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish, ularni alternativ moliya xizmatlari bo'yicha xabardor qilish hamda keng ko'lamli o'quv dasturlarini yo'lga qo'yish talab etiladi. Yana bir muhim yo'nalish sifatida davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish, yangi instrumentlarni testdan o'tkazish va pilot loyihalarni qo'llab-quvvatlash orqali ekotizimning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/Reference:

Ahlers, G. K., Cumming, D., Günther, C., & Schweizer, D. (2015). Signaling in equity crowdfunding. *Entrepreneurship Theory and Practice*, 39(4), 955–980. <https://doi.org/10.1111/etap.12157>.

Armendáriz, B. & Morduch, J. (2010) *The Economics of Microfinance*. 2nd ed. Cambridge, MA: MIT Press.

Asian Development Bank (2022) *Uzbekistan: Microfinance Sector Assessment*. Manila: ADB.

Ethis. (2023). *Islamic crowdfunding: Shariah-compliant investment alternative*.

Freedman, S., & Jin, G. Z. (2017). The Information Value of Online Social Networks: Lessons from Peer-to-Peer Lending. *Journal of Marketing Research*, 54(4), 487–504.

Iqbal, Z. & Mirakhor, A. (2011) *An Introduction to Islamic Finance: Theory and Practice*. 2nd ed. Singapore: Wiley.

KPMG Uzbekistan (2024). *Fintech va alternativ moliya bozorining tahlili*.

Lambert, T. & Schwiendbacher, A. (2010) 'An empirical analysis of crowdfunding', *Social Science Research Network (SSRN)*, pp. 1–23.

Markaziy bank (2023). *O'zbekiston moliya bozori statistikasi*.

Markaziy bank (2023). *O'zbekiston moliya bozori statistikasi*.

Milne, A. & Parboteeah, P. (2016) *The Business Models and Economics of Peer-to-Peer Lending*. London: European Credit Research Institute.

Mohd Thas Thaker, M. A. (2018). Factors influencing the adoption of the Islamic crowdfunding model. *ISRA International Journal of Islamic Finance*, 10(1), 1–24. <https://doi.org/10.1108/IJIF-05-2017-0007>.

Rabbani, M. R., Khan, S., & Thalassinis, E. I. (2021). Fintech, blockchain and Islamic finance: An extensive literature review. *International Journal of Economics and Business Administration*, 9(2), 65–87. <https://doi.org/10.35808/ijeba/704>.

UzFinTech (2023-2024). *Raqamli moliya rivojlanishi bo'yicha yillik hisobot*.

World Bank (2023) *Financial Inclusion and Islamic Finance in Uzbekistan*. Washington, DC: World Bank.

Zhang, B., Wardrop, R., Rau, R. & Gray, M. (2018) *The 4th UK Alternative Finance Industry Report*. Cambridge: Cambridge Centre for Alternative Finance.

Zhang, R., & Posso, A. (2020). The evolution of alternative finance. *Journal of Financial Economics*, 138(2), 386–405.

Ziegler, T., Shneor, R., Wenzlaff, K., Odorović, A., Johanson, D. & Hao, R. (2021) *The Global Alternative Finance Market Benchmarking Report*. Cambridge: Cambridge Centre for Alternative Finance.